Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'lchiyev Shaxriyor Xusanovich	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish.....	1254
Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
Raxmatov A'zam Ashur o'g'li	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida.....	1262
Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
Sharipova Sarvinoz Sayid qizi	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
Usmonova Mohizoda Avazjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
Xomidova Dilorom Abduraxmonovna	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России.....	1293
Суюрова Айнур Ибодуллаевна	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
Kilichev Nurulla Abbosovich	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
Abdushukurova Mushtariy	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
Нумонжоннова Фарангиз Комиловна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari.....	1321
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyani o'rganish va korreksiyalash	1329
Azimova Aziza Baxtiyorovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
Mirzayeva Dilafuz	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
Kadirova Feruza Hikmatullayevna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
Kosimova Gullola Mullajonovna	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
Nishonova Munira Yakubjonovna	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
Mamirova Dilorom Tavakulovna	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
Meliboyev Tavakkal Turg'unovich	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
Mexmonov Ismat Toshpo'latovich	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
Mo'minov Durbek No'monovich	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboiyevna	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
Nizomov Feruz Raxmon o'g'li	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
Nurmonova Zebo Fattaxovna	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
O'ktam Nosirov	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqini o'stirish texnologiyalari.....	1398
O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
Qodirova Buzulayho Turg'unovna	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
Quldashv Murodjon G'aniyevich	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida)..... 1419 Sotkulova Dildora Odinabekovna	1419
	Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati 1423 Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova	1423
	Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish 1427 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	1427
	Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar 1430 Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna	1430
	Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli 1436 Yunusova Diloramxon Abdumajitovna	1436
	Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari 1440 Aripova Nodira Shuxratovna	1440
	Методы развития устной речи детей дошкольного возраста 1444 Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи	1444
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari 1449 Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi	1449
	Virtual modellashtirish asosida o'quvchilarning arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 1454 Abdullayev A'zamjon Komolxanovich	1454
	Analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tizimli yondashuvning prinsiplari 1458 Amanova Gulxayo Dilmurod qizi	1458
	O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash (PISA) dasturlarining roli 1462 Axmedova Mastura Maxmudovna, Abdumalikova Zamira Dilmurod qizi	1462
	O'yin faoliyatida erkinlik va maqsadlilik uyg'unligi: ijodiy tafakkurni rivojlantirish omili sifatida 1465 Baxriddinova Yulduz Abror qizi	1465
	Incorporating Culture-Sensitive Communicative Tasks in EFL Courses 1468 Guzal Ismailova	1468
	Ingliz tilini o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish texnologiyasi 1471 Ibragimova Sevara Baxodirovna	1471
	Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish: imkoniyatlar, cheklovlar va istiqbollor 1474 Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi	1474
	Erta yoshda ingliz tilini o'yin va TPR metodlari asosida o'rgatish samaradorligi 1478 Kadirova Nilufar Tursinbayevna	1478
	Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlarini o'rganish 1481 Karayeva Y. X.	1481
	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 1484 Nazarova Mavluda Uktamovna, Botirova Ozoda Baxodir qizi	1484
	Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etishda metoddan foydalanish – ijodiy fikrlashni rivojlantirish 1487 Nazarova Mohigul Akmalovna, Raxmonova Fariza Suxrobovna	1487
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'рни va ahamiyati 1493 O'rinboeva Lolaxon O'ktamovna, Nazarov Ilhomjon Usmanalievich	1493
	Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (Finlyandiya va Singapur tajribasi asosida) 1496 Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi	1496
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashgan darslarni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish 1500 Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna	1500
	Ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv ko'nikmalarini oshirishning metodik asoslari 1504 Qurbonova Barnoxon	1504
	Ta'lim tizimida marketing 1508 T. Seydemetov	1508
	Xorijiy tillarning o'qitilishida boshqa tillarning roli va o'qitish metodikasi 1515 Tashxodjayeva Patima Bakiyevna	1515



Integrating Social and Linguistic Skills in English Teaching Instruction is the Key to Improving Holistic Language Competence.....	1518
<i>Zaylobidinova Munira Gulomovna</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limidagi o'rni	1523
<i>Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi</i>	
Pedagogik oliy ta'limda kreativ loyiha va tanlovlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish	1530
<i>Baxriddinova Yulduz Abror qizi</i>	
Развитие физических качеств будущих учителей физической культуры с помощью современных технологий	1533
<i>Уринов Облакул Джумаевич</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va nutq ravonligini rivojlantirish.....	1536
<i>Babayeva Xolida Avazmuradovna</i>	
Развитие физических качеств преподавателей физического воспитания с помощью специальных упражнений и современных технологий: научно-практические аспекты	1540
<i>Розиков Нормурод Элмонович</i>	
Развитие массового спорта с помощью технологий и их внедрение в здоровый образ жизни	1543
<i>Давулов Озодбек Каландарович</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talabalarga ingliz tilida gapirishni o'rgatish metodikasi	1547
<i>Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi</i>	
Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslari	1550
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Murakkab matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1553
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi, Alijonova Nazokat Dilmurodjon qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fanining o'rni	1557
<i>Yuldasheva Muxtasarxon Ikromjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "ustoz-shogird" an'anasini tashkil etishning ustuvor vazifalari.....	1561
<i>Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	1565
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Multimodal Learning as a Pedagogical Framework for Enhancing Professional Competence in Pre-Service Teacher Education	1568
<i>Alimova Dildora Komiljon qizi</i>	
Bolalarda ijtimoiy odobni tarbiyalash xalqaro tajribalar asosida tahlil va taklif	1573
<i>Azimova Ziyoda Ergashevna, Mamirova Maxzunaxon Azamjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida malakaviy amaliyotni samarali tashkil etishni takomillashtirishning ahamiyati.....	1576
<i>Baqoyev Olim Jtayeich</i>	
Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi.....	1580
<i>Dustmaxmat Tashmatovich Bakiyev, O'ktam Eshtemirovich Xo'janazarov, Nazira Ochilovna Ro'ziyev</i>	
Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar	1588
<i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>	
Oliy ta'limda kompetenyaga asoslangan o'qitish modellari	1591
<i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehro</i>	
Onlayn qimor o'yinlariga tobelikning iqtisodiy soha xodimlari mehnat samaradorligiga ta'siri.....	1598
<i>Fatidinova Dildora Murodjanovna</i>	
Noverbal aloqa vositalarining psixolingvistik xususiyatlari.....	1602
<i>Ismailova Oygul Sabirbayevna</i>	
Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo'llari	1605
<i>Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi, Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich, Muhammadiyeva Elmera Normurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali muloqotning dolzarb muammolari, imkoniyatlari va yechimlari	1609
<i>Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi</i>	

Oliy ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarning jismoniy faolligi muammosi.....	1614
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
Ingliz tilida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish.....	1619
<i>Mamaziyojeva Orzixon Odiljon qizi</i>	
Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda pedagogik mahoratning ahamiyati	1622
<i>Muhamadijeva Nargiza Qudratovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirish metodikasi....	1626
<i>Murodullayeva Dilsora Ilhom qizi</i>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha loyiha ishlarini tashkil etish.....	1629
<i>Musayeva Umida Xolmatjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish texnologiyasi.....	1633
<i>R. R. Zulfiqorov</i>	
Maktabgacha ta'limda dual ta'lim shaklini joriy etishning afzalliklari.....	1639
<i>Razoqova Hosilaoy Anvarovna</i>	
Pedagogik ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarni faollashtirishning didaktik xususiyatlari	1642
<i>Ruziyev Shuxrat Islamovich</i>	
Oliy ta'lim talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash omillari.....	1647
<i>Sunnatov Zafar Ubaydullayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tanglay kamchiliklariga ega bo'lgan (rinolaliya) bolalarning nafas va motorikasini rivojlantirishning samarali yo'llari	1651
<i>Tadjixodjeva Feruza Orifovna</i>	
The Role of Circles in Teaching English to Future Primary School Teachers.....	1654
<i>Turdikulova Bonu Otabek qizi</i>	
Tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va zamonaviy yondashuvlar.....	1657
<i>Tursunova Sevarxon Umarovna</i>	
Xilvatiy ijodi va uning o'ziga xos xususiyatlari	1661
<i>Usmonova Anora</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorij amaliyoti	1664
<i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	
3–4-sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda mnemotexnikadan foydalanish metodikasi.....	1667
<i>Usmonova Odinaxon Sobirovna</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari	1670
<i>Xo'jayorova Munira Samadovna</i>	
O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (texnologiya fani misolida)	1674
<i>Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy rivojlanishining ahamiyati	1678
<i>Yuldasheva Feruza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllarni o'rgatish orqali nutqiy kompetentligini rivojlantirish ..	1681
<i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Qodirova Mubinaxon Zuxriddin qizi</i>	
Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari	1684
<i>Abdulfattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi</i>	
Периодизация процесса совершенствования воспитательной роли женщины в Центральной Азии	1688
<i>Саидова Барно Нарзуллаевна</i>	
Jinoyat protsessida tergov organi rahbari tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari	1693
<i>Shohruh Xalilov</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni tadqiq qilishning psixologik jihatlari	1698
<i>Amirova Nazokat Uroq qizi</i>	
Raqamli pedagogik muhitda vizual modellashtirish asosida Richpeace Cad dasturini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	1702
<i>Asrorova Saodat Abdullo qiz</i>	
Umumiy ta'lim maktablarida sun'iy intellektni qo'llash.....	1707
<i>Atabaeva Baxitli Jaxanshaevna</i>	



Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarida profilaktik muhitni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1710
Bayjanov Babil Bahodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati.....	1715
Bobolov Nuriddin Tojiyevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	1718
Eshboeva Surayyo Qaxramon qizi	
Maktabda steam loyihalari asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish.....	1721
G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Turdiyeva Barchinoy Bobirovna	
O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanishida o'ziga bo'lgan munosabatning ta'siri.....	1726
G'aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi	
Trigonometrik funksiyalarning qo'shish formulalarini isbotiga doir masalalar.....	1731
H. Tadjimatova	
Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va islohatlar (1991–2024-yillar).....	1734
Hafiza Botirova Ravshan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1737
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Ayollar uchun "shisha shift" sindromi: sabablari, oqibatlari va uni yengish strategiyasi.....	1740
Karimova Maftuna Vohidovna	
5-6 yoshlik bolalarda refleksiv tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar.....	1744
Karshiyeva Shahnoza Turakulovna	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili.....	1747
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar orqali ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi.....	1752
Madaminova Sarvigul Anvarxo'ja qizi, Qurbonova Baxtixon	
Integratsiyalashgan ona tili fanining muammo va yechimlari.....	1755
Mamarajabova Ozoda Zokir qizi	
Maxmudxo'ja Behbudiy asarlarida ma'rifiy qadriyatlarning yoritilishi.....	1758
Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish.....	1763
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna	
Bo'lajak pedagoglarda kouching texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish.....	1766
S. E. Kabulova	
Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari.....	1772
Shamuratov Marat Xalmuratovich	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari.....	1776
Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish.....	1779
Sultonova Shohida Muxtor qizi	
Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari.....	1783
Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna	
Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari.....	1786
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar.....	1791
Turdiyev Azamat Gayratovich	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari.....	1794
Yusupova Xabiba Iriskulovna	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.....	1797
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению.....	1799
Маханова Малика Жумабек кизи	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО.....	1803
Умурзакова Умида Наримановна	



Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей 1807 Хуррамова Гузал Равшановна	1807
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari 1810 Norov Nodir Jo'rayevich	1810
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi 1814 Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi	1814
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 1818 Xaqberdiyeva Sh. T.	1818
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati 1823 Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	1823
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri 1826 Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	1826
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish 1829 Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna	1829
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni 1833 Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	1833
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir 1836 D. Teshaboyev, Z. Boymatova	1836



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA QO'SHIMCHA XIZMATLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

R. R. Zulfiqorov

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari har tomonlama yoritilgan. Tadqiqot jarayonida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlarining mazmuni, ularni joriy etishning tashkiliy asoslari hamda innovatsion yondashuvlar asosidagi boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion muhit, maktabgacha ta'lim, menejmentni rivojlantirish, ta'lim texnologiyalari, ijodkorlik, makon tashkil etish.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the pedagogical conditions for organizing additional services in preschool educational institutions. The study examines the structure of supplementary educational services, the organizational requirements for their implementation, and the management mechanisms based on innovative approaches.

Key words: innovative environment, preschool education, management development, educational technologies, creativity, spatial organization.

Аннотация: В статье всесторонне освещены педагогические условия организации дополнительных услуг в дошкольных образовательных учреждениях. В исследовании проанализированы содержание дополнительных образовательных услуг, организационные основы их внедрения, а также механизмы управления на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: инновационная среда, дошкольное образование, развитие менеджмента, образовательные технологии, творчество, организация пространства.

KIRISH

Qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli¹ qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 13-dekabrda 3-mh-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish" bo'yicha buyrug'i² asosidagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomga³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom"⁴ga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning harajatlari smetasi va shtat jadvalarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

2 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 13-dekabrda 3-mh-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish" bo'yicha buyrug'i

3 "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomga

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom"

nizom”⁵ga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori”⁶ga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori”⁷ga hamda o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiradi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, maktabgacha ta’lim tashkilotlari qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatishdan olingan daromadlardan foydalanishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotimizda qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiyani tashkil etish bolalarning individual xususiyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim faoliyatini loyihalash imkonini beradi, bunda bola faoliyatni tanlashda faol bo‘ladi. Ota-onalarga pullik qo‘shimcha ta’lim-tarbiya xizmatlari to‘g‘risida ma’lumotlarning ochiqqligi va ishonchligini ta’minlash, individual maslahatlar berish, ochiq tadbirlarni o‘tkazish, ma’lumotlarni e’lon qilish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti e’lonlar taxtasi va veb-saytlaridan faol tarzda foydalanish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘shimcha ta’lim-tarbiya xizmatlarini joriy etish bo‘yicha nazariy asoslar pedagogika fanidagi innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq. Slastenin va Rodimova tomonidan pedagogik innovatsiyalar mohiyati, ta’lim jarayonini boyituvchi qo‘shimcha faoliyat turlari, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga ta’sir qiluvchi tashkiliy omillar keng yoritilgan. Monaxovning ta’lim jarayonini loyihalash bo‘yicha ishlari esa qo‘shimcha xizmatlarni tizimli rejalashtirish, mazmuni modullashtirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning nazariy asosini beradi. Ushbu ilmiy manbalar qo‘shimcha xizmatlarning ta’lim tizimidagi funksional ahamiyatini asoslashda muhim metodologik baza vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvlar ham qo‘shimcha xizmatlar samaradorligini o‘rganishda alohida e’tibor talab qiladi. Tugushevning kasbiy kompetensiyani psixodiagnostika qilish bo‘yicha tadqiqotlari pedagoglarning psixologik tayyorgarligi, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda aynan qo‘shimcha xizmatlarning rolini chuqur ochib beradi. Postalyuk tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy faoliyat nazariyasi esa badiiy, ijodiy va muhitga yo‘naltirilgan qo‘shimcha mashg‘ulotlarning bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir mexanizmlarini ilmiy asosda ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasidagi qo‘shimcha xizmatlarning huquqiy bazasi ham muhim o‘rin tutadi. “Xalq so‘zi” gazetasida yoritilgan davlat qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etish tartibi, moliyaviy mexanizmlar, ota-onalar bilan hamkorlik talablari va xizmatlar sifat nazorati bo‘yicha aniq me’yorlarni belgilab beradi. Umarovning maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqoti esa qo‘shimcha xizmatlarning tarbiyaviy funksiyasini asoslashga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etish jarayonining amaldagi holatini aniqlash maqsadida empirik ma’lumotlar yig‘ishning bir nechta usullaridan foydalanildi. Avvalo, ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha xizmatlar faoliyatini aks ettiruvchi me’yoriy hujjatlar, ichki buyruqlar, xizmatlar rejaları va preyskurantlar kontent tahlili qilindi. Shuningdek, pedagoglar, rahbarlar va ota-onalardan ma’lumot olish uchun yarim strukturalangan suhbatlar va so‘rovnoma qo‘llanildi. Kuzatuv metodi orqali qo‘shimcha mashg‘ulotlarning o‘tkazilish sifati, bolalar faolligi va tashkiliy jarayonlar baholandi. Olingan ma’lumotlar mazmuniy tahlil orqali qayta ishlanib, takrorlanadigan tendensiyalar, muammolar va samarali yondashuvlar aniqlashtirildi. Statistik umumlashtirish yordamida qo‘shimcha xizmatlarning pedagogik jarayondagi o‘rni, samaradorlik omillari va rivojlanish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi.

5 O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning harajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomi”

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori”

7 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori”



TAHLIL VA NATIJALAR


Bizningcha, qo'shimcha xizmatlar 5-jadvalda ko'rsatilgan tasnifi va turlari, ularning maqsadi, vazifalari va tashkiliy xususiyatlarini o'z ichiga olishi kerak, deb hisoblaymiz.

5-jadval: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda qo'shimcha xizmatlarning tasnifi va turlari, ularning maqsadi, vazifalari va tashkiliy xususiyatlari

Ta'lim xizmatlari				
Qo'shimcha xizmatlarning tasnifi	Erta rivojlanish kurslari (mantiq, matematika, atrofimizdagi dunyo).	Til kurslari (chet tillarini o'rganish).	Kompyuter savodxonligi asoslari va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dasturlar.	
Ijodiy va badiiy xizmatlar	Tasviriy san'at, musiqa, teatr san'ati bo'yicha mashg'ulotlar.	Hunarmandchilik, modellashtirish	Qurilish mashg'ulotlari.	
Jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash xizmatlari	Sport seksiyalari (gimnastika, suzish, futbol va boshqalar).	Jismoniy rivojlanish	Kasalliklarning oldini olish dasturlari.	
Ijtimoiy-pedagogik xizmatlar	Ijtimoiy moslashuv va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish kurslari.	Maxsus ta'limga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash	Qo'llab-quvvatlash dasturlari.	
Psixologik xizmatlar	Bolalar psixologlari bilan maslahatlar.	Emotsional intellektni rivojlantirish	Stressni boshqarish bo'yicha treninglar.	
Maqsad va vazifalar				
Qo'shimcha xizmatlarning maqsadlariga quyidagilar kiradi	Bolaning kognitiv faolligini va ijodiy salohiyatini rag'batlantirish	Ijtimoiy va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.	Jismoniy salomatlikni mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.	Har bir bolaning individual qobiliyatlarini va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.
Tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari				
Yoshga moslashish	Qo'shimcha xizmatlar bolalarning yosh xususiyatlari va psixofizik rivojlanishiga mos kelishi.	Yosh guruh dasturlari odatda ko'proq o'yinli va vizual, katta yoshdagi bolalar uchun esa yanada murakkab va tizimlashtirilgan mashg'ulotlar tashkil etilish.		
Shaxsiy yondashuv	Qo'shimcha xizmatlarni tashkil qilishda har bir bolaning individual xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olish.	Ta'lim jarayoniga motivatsiya va faollikni oshirishga yordam berish.		
Asosiy ta'lim dasturi bilan integratsiya	Qo'shimcha xizmatlar orqali bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minash, asosiy ta'lim dasturini uyg'un ravishda to'ldirish va kengaytirish.			
Ota-onalar bilan hamkorlik	Ota-onalarni qo'shimcha ta'lim jarayoniga faol jalb qilish orqali yagona ta'lim makonini yaratish va maktabgacha ta'lim tashkilotidan tashqarida bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam berish.			

To'garaklardagi mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga shaxsiy rivojlanish, tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantirish, muvaffaqiyatli sotsializatsiya va individuallashtirish imkoniyatini beradi. Bolalar zamonaviy jamiyatga moslashish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ularning bo'sh vaqtini to'liq tashkil etish imkoniyatini yaratishda ota-onalarning qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ota-onalarning vaqtini tejash, ota-onalar va jamiyat talabini eng yuqori darajada qondirish, ta'lim xizmatlari bozorida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining imiji va raqobatbardoshligini oshirish, tashkilotning qo'shimcha moliyalashtirish va moddiy-texnika bazasini yaxshilashni ilgari surish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish dam olish kunlari va tashkilotda ish kuni yakunlangandan keyin o'qitish, o'quv dasturidan tashqari sport-sog'lomlashtirish (ya'ni taekvondo, shashka, gimnastika, raqs) va fanlar bo'yicha to'garaklar, chet tillari, aqliy arifmetika to'garaklari shaklida amalga oshirilishini o'z ichiga oladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori hamda bolaning ota-onasi yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslardan biri bilan "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomga muvofiq o'zaro shartnoma tuzadi.



1-rasm: Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish texnologiyasi

Shu qatorda, tashkilotda qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari maktabgacha ta'lim bo'limi bilan kelishilgan holda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori buyrug'iga muvofiq quyidagi hujjatlar asosida tashkil etiladi:

- ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatning ish rejasi;
- ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlarning preyskurant narxlarini;
- ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar bo'yicha mashg'ulotlar jadvali.



Qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlarini amalga oshirish bosqichlari: Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pullik qo'shimcha ta'lim-tarbiyaning amalga oshirilishi pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari uchun ijobiydir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan keng ko'lamli ta'lim, tarbiya va rivojlanish dasturlarini ifodalaydi. Ushbu xizmatlar asosiy ta'lim dasturini to'ldiradi va bolalar hamda ularning ota-onalarining o'ziga xos ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayd etish lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlar bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni muvaffaqiyatli sotsializatsiya hamda maktabga tayyorlashga qaratilgan ko'p qirrali tizimdir.

Boshqaruv tizimining samaradorligi menejmentga ilmiy yondashish, boshqaruv jarayonlarini kompleks o'rganish, boshqaruv tamoyillarini uyg'unlashtirishga bo'lgan harakatlarni birlashtirishga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv faoliyatini tashkil etishda ta'lim muhitini takomillashtirish hamda boshqaruv texnologiyalarini joriy etish uchun boshqaruvda innovatsion yondashuvlar talab etiladi.

Bizningcha, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish texnologiyasi tizimli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bunday texnologiya rahbarlar faoliyatini uch asosiy bosqichda yo'lga qo'yishni nazarda tutadi: tayyorgarlik, amaliyotga tatbiq etish va tizimlashtirish hamda baholash bosqichi. Shuni ta'kidlash lozimki, texnologiya bosqichma-bosqich rivojlanishni ko'zda tutgan holda rahbarlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim tashkilotining boshqaruv jarayonini innovatsion mezonlar asosida tashkil etishga qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tayyorgarlik bosqichida muassasaning mavjud holati va imkoniyatlari o'rganilib, SWOT tahlil asosida muammolar aniqlanadi. Shu o'rinda muhim jihatlardan biri shundaki, rahbar va pedagog xodimlarning kompetensiyasi baholanadi, ularning innovatsion salohiyat darajasi aniqlanadi. Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, ushbu jarayon faqatgina tashxis qo'yish emas, balki kelajakda qaysi sohalarida rivojlanishga ehtiyoj mavjudligini ham belgilab beradi. Ilmiy manbalar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, aynan shu bosqichda raqamli texnologiyalar va zamonaviy menejment yondashuvlari (Agile, SMART, Lean Management) bilan tanishish rahbarlar uchun innovatsion fikrlash imkoniyatini kengaytiradi.

Amaliy kuzatuvlar shuni anglatadiki, ikkinchi bosqich – amaliyotga tatbiq etish bosqichi texnologiyaning eng faol qismidir. Bu jarayonda pedagogik faoliyatni raqamlashtirish, elektron kundaliklar, masofaviy mashg'ulotlar va ota-onalarning onlayn nazoratini yo'lga qo'yish muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini boshqarish uchun indikatorlar asosida analitik platforma yaratish, STEAM makonlari, ijodiy laboratoriyalar va "aqli" guruhxonalarni tashkil etish ham innovatsion strategiyaning amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Bu jihatni quyidagicha tushuntirish mumkin: agar ta'lim jarayoni zamonaviy texnologiyalar va resurslar bilan boyitilsa, u holda bolalarning ijodiy va intellektual rivojlanishi yangi bosqichga ko'tariladi.

Olib borilgan izlanishlarga asoslanib aytish joizki, uchinchi bosqich – tizimlashtirish va baholash jarayoni texnologiyaning barqarorligini ta'minlaydi. Bu bosqichda ichki monitoring va tahlil ishlari muntazam amalga oshiriladi, samarali natija bergan innovatsion yondashuvlar hujjatlashtiriladi va standartlashtiriladi. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, bu jarayon amaliyotda yaxshi natija bergan tajribalarni umumlashtirish, ulardan keyingi faoliyatda barqaror foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, malaka oshirish va innovatsion tajriba almashish tizimini yaratish, ochiq hisobot va strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqish ham rahbarlar faoliyatining samaradorligini yanada mustahkamlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida rahbarlarning boshqaruv faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish texnologiyasi dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, rahbarlik faoliyatida an'anaviy boshqaruv shakllaridan voz kechib, innovatsion yondashuvlarni joriy etish muassasalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydi, pedagogik jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Shuni ta'kidlash lozimki, rahbarning faoliyati nafaqat tashkiliy masalalarni hal etish bilan cheklanmay, balki ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy o'sishi, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan texnologiya uch bosqichdan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir. Tayyorlov bosqichi muassasaning real holatini chuqur tahlil qilish, imkoniyatlarini aniqlash va mavjud muammolarni belgilashga qaratilgan bo'lsa, amaliyotga tatbiq etish bosqichi innovatsion loyihalarni hayotga joriy etish, raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish va samarali boshqaruv mexanizmlarini qo'llashga yo'naltirilgan. Tizimlashtirish va baholash bosqichi esa natijalarni mustahkamlash, samarali tajribalarni hujjatlashtirish, ularni kengaytirish va strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, tayyorlov bosqichida SWOT tahlil o'tkazilishi muhim o'rin tutadi. Bu metod orqali muassasaning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari va tashqi tahdidlari aniqlanadi. Ilmiy manbalar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, SWOT tahlil nafaqat vaziyatni tashxislash, balki kelajakdagi rivojlanish

strategiyasini shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Shu o'rinda muhim jihatlardan biri shundaki, rahbar faqat muammolarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni bartaraf etish bo'yicha real reja ishlab chiqishi kerak. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, tayyorlov bosqichi rahbarlik faoliyatining eng mas'uliyatli qismi bo'lib, unda butun texnologiyaning keyingi natijalari belgilab olinadi.

Tadqiqotimiz davomida aniqladikki, tayyorlov bosqichida rahbar va pedagoglarning kompetensiyasini baholash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni anglatadiki, rahbarlarning innovatsion salohiyat darajasi ularning zamonaviy texnologiyalarni qabul qilishga, jamoani boshqarishda yangicha metodlardan foydalanishga qanchalik tayyor ekanligini ko'rsatadi. Qayd etish lozimki, kompetensiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalar, boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakasi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Ilmiy manbalar tahliliga asoslanib aytish joizki, tayyorlov bosqichida rahbarlarning raqamli texnologiyalar, zamonaviy menejment yondashuvlari, xususan Agile, SMART va Lean Management konsepsiyalari bilan tanishishi katta ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonini soddalashtirish, samaradorlikni oshirish, aniq natijalarga erishish uchun keng qo'llanilmoqda. Bizningcha, ularni maktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish rahbarlar faoliyatida yangicha sifat bosqichiga olib chiqadi.

Amaliyotga tatbiq etish bosqichi texnologiyaning eng faol qismi bo'lib, unda belgilangan strategiyalar real hayotga tadbiiq qilinadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, raqamlashtirish jarayoni bu bosqichning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Elektron kundaliklar, masofaviy mashg'ulotlar, onlayn ota-ona nazorati, elektron hujjat aylanishi kabi mexanizmlar rahbarlik faoliyatida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi. Bu masalaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud, biroq bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, raqamlashtirish jarayoni faqat elektron tizimlarni joriy etish emas, balki boshqaruv faoliyatini tubdan yangilash va samarali mexanizmlarni yo'lga qo'yishdir.

Amaliy natijalar shuni anglatadiki, analitik platformalar yaratish ta'lim sifatini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Bunday platformalar orqali rahbarlar indikatorlar asosida natijalarni tahlil qiladi, ta'lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, strategik qarorlarni ilmiy asosda qabul qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu jarayon nafaqat rahbarlarning boshqaruv salohiyatini oshiradi, balki ta'lim jarayonini ham yuqori samaradorlikka olib chiqadi.

Bizning kuzatuvlarimizga ko'ra, amaliyotga tatbiq etish bosqichida STEAM makonlari, ijodiy laboratoriyalar, "aqlli" guruhxonalarini tashkil etish bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Aytish joizki, bu loyihalar bolalarning faqat intellektual emas, balki ijtimoiy, axloqiy va estetik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Faraz qilish mumkinki, tizimlashtirish va baholash bosqichi texnologiyaning barqarorligini ta'minlaydigan eng muhim bo'g'indir. Olib borilgan izlanishlarga asoslanib aytish joizki, ichki monitoring, natijalarni hujjatlash-tirish, samarali yondashuvlarni standartlashtirish rahbarlik faoliyatini yuqori bosqichga olib chiqadi. Amaliy kuzatuvlar shuni anglatadiki, tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish rahbarlarning kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi, ular o'zaro innovatsion tajribalarni baham ko'rib, samarali natijalarga erishadi.

E'tiborga loyiq jihatlardan biri shuki, ochiq hisobotlik tizimini joriy etish rahbarlar faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois, strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda aniq natijalarga tayangan holda qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jihatni quyidagicha tushuntirish mumkin: ochiq hisobot nafaqat tashqi nazoratni ta'minlaydi, balki rahbarning o'z faoliyatini tanqidiy baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kelgusidagi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkoniyatini ham yaratadi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, ushbu texnologiyaning nazariy asoslari ta'lim psixologiyasi, boshqaruv nazariyalari va innovatsion menejment tamoyillari bilan bevosita bog'liqdir. L. S. Vygotskiy, J. Piaget, A. Maslou kabi olimlarning nazariy qarashlari bolaning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan mavzuni chuqurroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, innovatsion strategiya nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki bolalarning shaxs sifatida to'liq shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017-yil. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 3-oktyabr.
2. Монахов В. М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. Волгоград: Перемена, 1995. – 152 б.
3. Тугушев П. Х. К вопросу системной психодиагностики психологической компетентности субъектов профессиональной деятельности. Elektron resurs. Rejim dostupa: www.психея.ру
4. Посталюк Н. Ю. Творческий стиль деятельности: педагогический аспект. Qozon: Kazan universiteti nashriyoti, 1989. – 125 б.
5. Сластенин В. А., Родимова Л. Педагогика. Инновационная деятельность. Moskva: "Magistr" nashriyoti, 1997. – 224 б.
6. Umarova M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Pedagogika fanlari nomzodi diss. Toshkent, 2009. – 141 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.